

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

“07” 06 2023-y.

**TARIX (BAKALAVR TA'LIM YO'NALISHIGA MOS FAN) FANI
BO'YICHA KASBIY IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH
ME'ZONLARI DASTURI**

BUXORO-2023

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash me'zonlari Buxoro davlat universiteti Kengashining 6-iyun 2023-yildagi 13 - sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

F.U.Temirov – Buxoro tarixi kafedrası mudiri

B.B.Umarov – Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

H.H.To'rayev – tarix fanlari doktori, professor

M.B.Qurbonova – tarix fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

Mazkur dastur ko'zi o'jiz va ko'rish qobiliyati sust bo'lgan abituriyentlar uchun tuzilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv dasturiga mos tarzda tuzilgan.

Tarixiy voqealar, tarixni davrlashtirish, inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy meros, shahar hamda davlatning paydo bo'lishi, yurtimizda manzilgohlarning vujudga kelishidan to davlatning qaror topgunga qadar bo'lgan tarixi, xorazmshohlar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar davlatlari, shuningdek, mo'g'ullar bosqini, Amir Temur va Temuriylar tarixi, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi, shuningdek, mustamlaka zulmiga tushib qolishimiz hamda mustaqillikni qo'lga kiritishimiz, Yangi O'zbekiston tarixini tushuntirish o'quvchi tafakkuri, mantiqiy fikrlashini o'stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bo'lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, til va Tarixga oid fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko'zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; tarixga oid masalalarni talqin qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadi qo'yiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda matematikaning o'rta ta'lim dasturida belgilangan mavzulariga oid masalalarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish vazifalari ko'zda tutilgan.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

“Tarix” (ko'zi o'jizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko'ra abituriyent:

- tarixni davrlashtirish;
- shahar-davlatlarning paydo bo'lishi;

- Qadimgi Sharq (Misr, Xitoy, Mesopotamiya, Hindiston va hk)da davlatning vujudga kelishi;

- Qadimgi Yunoniston va Rimda davlatning vujudga kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot;

- O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi;

- Qadimgi Xorazm, Qang', Davan va Kushon davlatlari;

- O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi;

- Arab xalifaligi davrida Movarounnahr;

- Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi;

- Ajdodlarimizning ilmiy merosi abadiyatga daxldor ma'naviy xazina;

- Amir Temur va Temuriylar davri tarixi;

- O'rta asrlarning ilk davri;

- Jahon xalqlari o'rta asrlarning rivojlangan davrida;

- Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi;

- Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari;

- XV asr oxiri –XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat;

- Buxoro xonligi va Buxoro amirligi;

- Xiva xonligi;

- XVIII asr –XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xonligi;

- Yevropada yangi davrning boshlanishi

- XVI-XVIII asrlarda Yevropa va Amerika mamlakatlari;

- XVI-XVIII asrlarda Osiyo va Afrika mamlakatlari;

- 1800-1870-yillarda Yevropa va Amerika mamlakatlari;

- 1800-1870-yillarda Osiyo va Afrika mamlakatlari;

- XIX asr o'rtalarida O'zbek xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti;

- Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi;

- XIX asr oxirlarida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari;

- XIX asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida Qoraqalpoqlar;

- Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi ahamiyati;
- Turkiston va Birinchi jahon urushi;
- XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi;
- XIX asr oxiri –XX asr boshlarida dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manzarasi;
- G'arbiy Yevropa mamlakatlari XIX asr oxiri –XX asr boshlarida;
- XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Amerika davlatlari;
- XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Podsho Rossiyasi, Markaziy va Janubiy Yevropa davlatlari;
- XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Osiyo va Afrika mamlakatlari;
- 1914-1918-yillardagi Birinchi jahon urushi;
- XIX asr oxiri –XX asr boshlarida fan va madaniyatning rivojlanishi;
- Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda o'zbek xalqining mustaqillik uchun kurashi (1914-1924-yillar);
- Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan siyosati;
- O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida;
- O'zbekistonda sovet hokimiyati inqirozi va mustaqillik uchun harakatlar;
- 1918 – 1939-yillarda xalqaro munosabatlar;
- 1918 – 1939-yillarda Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlari;
- Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari;
- 1946-1991-yillarda Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlari tarixi;
- Mustaqillikning e'lon qilinishi va O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning boshlanishi;
- O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi;
- Mustaqillik yillarida ilm-fan va sportning rivojlanishi
- O'zbekiston respublikasining tashqi siyosati va ikki tomonlama munosabatlar haqidagi savollarga javob bera olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Fanning mazmuni

Tarixni davlashtirish; shahar-davlatlarning paydo bo'lishi; Qadimgi Sharq (Misr, Xitoy, Mesopotamiya, Hindiston va hk)da davlatning vujudga kelishi; Qadimgi Yunoniston va Rimda davlatning vujudga kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot; O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi; Qadimgi Xorazm, Qang', Davan va Kushon davlatlari;

O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi; Arab xalifaligi davrida Movarounnahr; Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi; Ajdodlarimizning ilmiy merosi abadiyatga daxldor ma'naviy xazina; Amir Temur va Temuriylar davri tarixi;

O'rta asrlarning ilk davri; Jahon xalqlari o'rta asrlarning rivojlangan davrida; Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi; Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari;

XV asr oxiri –XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat; Buxoro xonligi va Buxoro amirligi; Xiva xonligi; XVIII asr –XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xonligi;

Yevropada yangi davrning boshlanishi, XVI-XVIII asrlarda Yevropa va Amerika mamlakatlari; XVI-XVIII asrlarda Osiyo va Afrika mamlakatlari; 1800-1870-yillarda Yevropa va Amerika mamlakatlari; 1800-1870-yillarda Osiyo va Afrika mamlakatlari;

XIX asr o'rtalarida O'zbek xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti; Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi; XIX asr oxirlarida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari; XIX asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida Qoraqalpoqlar; Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi ahamiyati; Turkiston va Birinchi jahon urushi; XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi;

XIX asr oxiri –XX asr boshlarida dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manzarasi; G'arbiy Yevropa mamlakatlari XIX asr oxiri –XX asr boshlarida; XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Amerika davlatlari; XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Podsho Rossiyasi, Markaziy va Janubiy Yevropa davlatlari; XIX asr oxiri –XX asr

boshlarida Osiyo va Afrika mamlakatlari; 1914-1918-yillardagi Birinchi jahon urushi; XIX asr oxiri –XX asr boshlarida fan va madaniyatning rivojlanishi;

Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda o'zbek xalqining mustaqillik uchun kurashi (1914-1924-yillar); Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan siyosati; O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida; O'zbekistonda sovet hokimiyati inqirozi va mustaqillik uchun harakatlar;

1918 – 1939-yillarda xalqaro munosabatlar; 1918 – 1939-yillarda Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlari; Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari; 1946-1991-yillarda Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlari tarixi;

Mustaqillikning e'lon qilinishi va O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning boshlanishi; O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi; Mustaqillik yillarida ilm-fan va sportning rivojlanishi

KASBIY (IJODIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ijodiy imtihon ko'p balli yagona baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

| Baholash | Abituriyent bilimi va malakasiga qo'yiladigan talablar |
|-----------------|---|
| A'lo 5 | Tegishli savollarning barchasi asoslangan, ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmagan holda javoblar berilsa, savollar mohiyatini to'la tushunib etgan bo'lsa, ijodiy fikr yuritsa, savollar bo'yicha mustaqil mushohada qilib bilsa, nazariy bilimlarni amalda qo'llashga misollar keltirib bilsa, savollar bo'yicha xulosalar va qarorlar qabul qilishda faol bo'lsa, material bo'yicha to'la tasavvurga ega bo'lsa. |
| Yaxsh i 4 | Savollarning barchasiga to'liq javob bersa, ju'ziy xatoliklarga yo'l qo'yilmasa, savollar mohiyatini to'la tushunib etgan bo'lsa, ijodiy fikr yurita olsa, nazariy bilimlarni amaliy ahamiyatini anglab etgan bo'lsa, material bo'yicha tasavvurga ega bo'lsa. |
| Qoniqarli 3 | Savollarga javob bergan bo'lsa, yo'l qo'ygan xatolari ju'ziy bo'lsa, savollar mohiyatini sayoz tushungan bo'lsa, nazariy bilimlarni amaliy ahamiyatini sayoz anglagan bo'lsa, savollar bo'yicha to'liq tushunchaga ega bo'lmasa. |

| | |
|-----------------|---|
| Qoniqarsiz 2 | Savollarga javoblar yozmagan bo'lsa, yo'l qo'ygan xatolari fizika qoidalariga zid bo'lsa, material mohiyatini tushunmasa, nazariy bilimlarni amaliy ahamiyatini qollay olmasa, mavzular bo'yicha to'liq tushunchaga ega bo'lmasa. |
|-----------------|---|

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Imtihon komissiyasi tarkibi, odatda, uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy imtihon natijalari o'tkazilgan kundan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi. Imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyasiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyasiya komissiyasi ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abituriyent ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida appelyasiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda, ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Appelyasiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

Murojaat mazmunida faqat abituriyent o'zi to'plagan ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



R.G'. Jumayev